

## ABU NASR FOROBIY FALSAFASIDA YUNON FALSAFIY G'OYALARINING AHAMIYATI

*Abdufattayeva Shahrizoda Shuhratbek qizi*

*Toshkent Davlat Sharqshunoslik Universiteti magistranti*

*abdufattoyevashahrizoda@gmail.com*

*Ilmiy rahbar: Sharq falsafasi va madaniyati*

*kafedrası dotsenti, f.f.n. M. Qodirov*

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada Sharq falsafasining buyuk siymolaridan biri bo'lgan Abu Nasr Forobiy falsafasini antik davr yunon faylasuflari Aristotel hamda Aflotun g'oyalari bilan bog'liqligi aks etgan. Maqolada o'zida ham materialistik, ham idealistik g'oyalarni mujassamlashtirgan Forobiy qarashlari yunon faylasuflari, jumladan Aristotel materializmi, Aflotun idealizmi bilan solishtirilgan holda tahlil etilgan. Maqolada Forobiy yunon ilmini chuqur o'rganish va yunon faylasuflari asarlariga sharhlar yozish orqali yunon falsafiy g'oyalarini musulmon Sharq falsafasiga olib kirganligi, bu orqali esa yunon falsafasi bilan islom falsafasining o'zaro murosaga keltirganligi alohida ta'kidlab o'tilgan.

**Kalit so'zlar.** Abu Nasr Forobiy, Aristotel, Aflotun, idealizm, "Muallim as-Soniy", materializm, idealizm, emanatsiya, materiya, ruh, jism, oliy mavjudot, iroda erkinligi, eydos, g'oya, "soylar va g'oyalar dunyosi" nazariyasi, "Fozil odamlar shahri", faylasuflar, abadiy baxt, oliy aql, oliy ruh.

Jahon madaniyatiga katta hissa qo'shgan Markaziy Osiyolik mashxur faylasuf, qomusiy olim Forobiyning to'liq ismi Abu Nasr Muhammad ibn Uzlug' Tarxon edi. U 873-yil Sirdaryo sohilidagi Farob shahrida turkiy qabilaga mansub harbiy xizmatchi oilasida dunyoga keladi. Forobiy yoshligidan bilimga chanqoq, bilimli va g'ayratli bo'lib voyaga yetadi. O'rta asrning bir qancha ilmiy yutuqlari, umuman Yaqin va O'rta Sharq mamlakatlarida taraqqiyparvar ijtimoiy-falsafiy tafakkur rivoji uning nomi bilan bog'liq. Olimning ilm-fan oldidagi xizmatlaridan biri uning yunon mutafakkirlari asarlarini sharxlaganligi va ularni yangi g'oyalar bilan boyitganligidir. Alloma, eng avvalo, Arastu asarlariga sharhlar bitgan, uning naturfalsafiy g'oyalarining targ'ibotchisi va davomchisi sifatida tanilgan. Farobiy, shuningdek Aflotun, Aleksandr Afrodiziyskiy, Yevklid, Ptolemey, Porfiriy asarlariga ham sharh yozganligi ma'lum. Bulardan tashqari, Gippokrat, Epikur, Anaksagor, Diogen, Xrisipp, Aristipp, Suqrot, Zenon asarlaridan xabardor bo'lgan hamda epikurchilar, stoiklar, pifagorchilar, kiniklar maktablarini yaxshi bilgan.

Farobiy Aristotel asarlariga sharhlar yozish davomida uning g'oyalaridan o'z falsafiy bilimlarini boyitib boradi va unga ergashgan holda "Sharq Arastuchiligi" maktabiga asos soladi. Aristotelni ilmiy fikrlar rivojiga qo'shgan hissasi uchun nafaqat

Yevropa, balki butun dunyo “Birinchii muallim” deb e’tirof etsa, Farobiy g’oyalarida Aflotun qarashlari sezilib turganligi uchun uni Sharqda “Muallim as-Soniy”, ya’ni, “Ikkinchi muallim” deb ulug’laydi.

Aristotel g’oyalarini tahlil qiladigan bo’lsak, Aristotel fikrlarida olam yaralishi to’g’risidagi ilk to’g’ri g’oyalarni ko’rishimiz mumkin. U ilk materialistik ta’limotga asos solgan holda olamning yaralishini o’z davri nuqtai nazaridan asosli ravishda izohlab berdi. U yaratgan g’oyalar keyinchalik ko’plab faylasuflar, jumladan Farobiyning materialistik qarashlarini shakllanishiga boshlang’ich asos bo’ldi. Uning “olam materiyadan paydo bo’lgan, materiyani esa qandaydir ilohiy kuch yaratgan” degan g’oyalarida jon bor, albatta. U dastlabki ibtido deb materiyani qo’ygan bo’lsa, Farobiy uning bu “materiya” g’oyasini musulmon falsafasiga ko’ra, “Yer” deb izohlaydi. Bilamizki, Islom ta’limotiga ko’ra, o’n sakkiz ming olamni, jumladan Yerni ham Alloh yaratgan. Yer yuzidagi jamiki mavjudot-u, nabototlarni, jumladan insonni ham mana shu yer bag’ridagi tuproq va suvdan yaratgan. Bir so’z bilan aytadigan bo’lsak, Farobiy Aristotelning materialistik g’oyalarini islom falsafasiga olib kirib, uni dalil hujjatlar bilan, ya’ni “Qur’oni Karim” oyatlari bilan izohlab bergan va shu orqali yunon va islom falsafasi g’oyalarini murosaga keltirgan.

Shu o’rinda savol tug’ilishi mumkin, olamdagi mavjudotlarda ruh qanday paydo bo’lgan? Aristotel materializmida “ruh” g’oyasi yo’qku? Farobiy bunga qanday yechim topgan? Bilamizki, islom falsafasiga ko’ra olamni Alloh yaratgan. Yer yuzidagi har bir narsani, jumladan, insonni ham avval jismini yaratib, so’ngra o’z nafasi bilan jon ato qilgan. Farobiy bu jihatdan ham yunon falsafasiga yuzlanadi. Biroq Aristotelga emas, Aflotunga. Yuqorida aytib o’tganimizdek, Farobiy o’zida Aristotel materializmini, Aflotun idealizmini mujassamlashtira olgan.

Bilamizki, Sharqda Aflotun nomi bilan mashxur bo’lgan Platon nafaqat o’z davrida balki hozirgi davr falsafasida ham o’ziga xos o’ringa ega. U qadimgi yunon faylasufi, ustozii Suqrot va shogirdi Arastu bilan birgalikda antik davr yunon madaniyatini yaratdi. Bu esa keyinchalik nafaqat G’arb, balki Sharq madaniyatining shakllanishiga ta’sir ko’rsatdi. U shuningdek matematik, yozuvchi hamda Afinadagi ilk akademiya asoschisi bo’lgan. Uning idealistik qarashlari falsafa tarixida yangi oqim idealizmning shakllanishiga olib keldi.

Idealizm atamaning o’zi Platon ta’limotidagi markaziy tushuncha – “eydos”dan kelib chiqqan. Platon dunyoni ikki sohaga bo’lingan holda tasavvur qilgan: g’oyalar olami (eydos) va shakllar olami (moddiy narsalar). Platon fikriga ko’ra, eydos moddiy dunyoning manbai. Materiyaning o’zi shaklsiz va efirdir, dunyo faqat g’oyalar mavjudligi tufayli mazmunli shaklga ega bo’ladi. Eydos olamida asosiy o’rinni yaxshilik g’oyasi egallaydi va qolgan barcha narsa undan kelib chiqadi. Bu yaxshilik ibtidolarning boshlanishini, mutlaq go’zallikni, olamning yaratuvchisini ifodalaydi.

Aflotun Xudoning mavjudligi va uning yagonaligini targ'ib etgan holda xudosizlikni qoralaydi.

E'tirof etishimiz kerakki, Platon Xudoning mavjudliginitan olgan ilk yunon faylasuflaridan biri hisoblanadi va aynan shu omil uning g'oyalari ko'plab musulmon faylasuflari tomonidan qo'llab-quvvatlanishiga sabab bo'lgan. Aflotunning emanatsiya ya'ni "porlash" nazariyasi falsafa tarixida ko'plab bahs-munozaralarga sabab bo'lgan jumboqlarning yechilishiga asos bo'ldi. Uning emanatsiya nazariyasiga ko'ra, butun borliq ilohiy ibtidoning porlashi natijasida paydo bo'lgan. Farobiy Platonning emanatsiya g'oyasini islom falsafasi bilan uyg'unlashtira oldi. U Allah yaratgan mavjudotlar ichida nega aynan inson oliy mavjudot ekanligini Platon emanatsiyasi hamda Qur'oni Karim oyatlari orqali isbotlab berdi. Islom falsafasiga ko'ra "ruh" tushunchasi ilohiy qudratga ega. Sababi Alloh insonni yer bag'ridan yaratib, unga o'z ruhidan puflab, jon ato etgan. Aynan shu sababli ham inson U yaratgan mahluqotlar ichida eng oliysidir. Farobiy insondagi noyob, boshqa mahluqotlardan farqli bo'lgan xususiyatlarning sababini ham emanatsiya g'oyasi bilan izohlaydi. Alloh o'z ruhidan insonga jon ato etganida porlash sodir bo'lib, Alloh ruhidagi ma'lum bir hislatlar ham insonga o'tgan. Shu sababli ham insonlar boshqa mahluqotlardan farqli ravishda yaratish qobiliyatiga ega.

Platon falsafasining asosiy mohiyati — "g'oya" ("eydos")lar haqidagi ta'limotida bayon etilgan. Uning fikricha, g'oya haqiqiy borliq, biz biladigan va yashaydigan dunyo uning soyasidir. Haqiqiy o'zgarish va taraqqiyot g'oyalar dunyosiga xos, soyalar dunyosidagi harakat esa uning in'ikosidir. G'oyalar dunyosining qonuniyatlarini hamma ham bila olmaydi. Ularni biladigan zotlar juda kam uchraydi, bu zotlar ulkan aql egalari bo'ladi. Aksariyat kishilar soyalar dunyosi bilan kifoyalanadi. Platon g'oyalar dunyosini narsalar dunyosidan ustun qo'yadi, chunki g'oyalar dunyosi ideal narsalardir.

Shu o'rinda Farobiyning "ideal jamiyat" g'oyasini Platonning idealistik qarashlari bilan sug'orilganligini ko'rishimiz mumkin. Farobiy ham o'zining "Fozil odamlar shahri" asarida jamiyatni boshqaruvchi insonlar dunyo sir-sinoatlaridan xabardor, bilimli insonlar, ya'ni faylasuflar bo'lishi kerakligini uqtiradi. Biroq, shu bilan birga, afsuski bunday insonlar sanoqli bo'lishini ta'kidlaydi. Platon g'oyalar dunyosini soyalar dunyosidan ustun qo'ygani kabi Farobiy ham keyingi dunyodagi baxtni yer yuzidagi hayot farog'atidan ustun qo'yadi.

Baxt, Farobiyning fikricha, insonning o'limidan keyin ham, ma'lum bir avlod yo'q bo'lib ketganidan keyin ham insoniyatga xizmat qilishi mumkin bo'lgan mukammal bilim va yuksak axloqiy mezonlarga erishishdir. Baxt insonga o'zidagi barcha yovuz hislatlarni yo'q qilganda, inson ruhi va aqli bilimidagi eng yuqori darajaga - abadiy dunyo aqli bilan qo'shilganda keladi. Inson halok bo'ladi, lekin uning hayoti davomida erishgan baxti ma'naviy va ulug'vor hodisa bo'lib, yo'q bo'lib ketmaydi, balki undan

keyin ham qoladi. Har bir isondan qolgan yaxshilik esa umuminsoniy ma'naviy madaniyatni yanada rivojlantirish va yuksaltirishga o'ziga xos hissadir. Shu sababli ham Forobiy insonlarni nafsga berilib, bu dunyodagi o'tkinchi hoy-havaslar ortidan quvib abadiy baxtdan mosuvo bo'lib qolmasliklari uchun o'zidagi yomon illatlarni bartaraf etishga chorlaydi.

Forobiy qarashlariga ko'ra, o'limdan keyin komillikka erishgan insonlarning ruhlari ozod bo'ladi va abadiy aql bilan birlashadi va shu orqali abadiy baxtga erishadi. Abadiy baxtga erishgan komil insonlar soni qanchalik ko'p bo'lsa, ularning umumiy baxti shunchalik katta bo'ladi. Jismdan uzoqlasha olmagan yovuz ruhlar esa u bilan birga halok bo'ladi. Baxtga erishgan inson qalblari bir-biri bilan birlashadi va shu orqali umuminsoniy baxt, keyingi avlodlarga xizmat qiladigan ezgu fazilatlar kuchayadi. Har bir avlod ortda umumiy baxtga qo'shilib, uni boyitib, to'ldiradi.

Aflotun qarashlariga qaytadigan bo'lsak, uning qarashlariga ko'ra, inson g'oyalar dunyosi bilan soyalar dunyosi o'rtasidagi zotdir. Uning ruhi g'oyalar dunyosiga, jismoniy tanasi soyalar dunyosiga mansubdir. Shuning uchun ruh va tana birligidan iborat odam ikki olamga tegishlidir. Ruh insonning haqiqiy qismidir. Biz hayot deb ataydigak narsa ruh jismoniy tanada yashaydigan vaqtdir.

Inson ruhiga kelsak, Aflotunning falsafiy ta'limoti uni allegorik tarzda talqin qiladi ikki otli arava aravachi tomonidan boshqariladi. Oq ot olijanoblik va yuksak axloqiy fazilatlarini, qora ot esa instinktlarni, asosiy istaklarni anglatadi. Aravachi har ikki oqni ham muvozanatda tutmog'i lozim, aks holda manzilga yetmay yo'lda harob bo'ladi. Oxiratda ruh (aravachi) xudolar bilan birga abadiy haqiqatlarda ishtirok etadi va eydos olamini idrok etadi. Yangi tug'ilgandan so'ng, abadiy haqiqatlar tushunchasi xotira sifatida qalbdagi qoladi.

Forobiy Aflotundan farqli ravishda insonni ikki yo'l orasidagi arosatdagi inson deb biladi. Birinchi yo'l qisqa, hech qanday to'siqlarsiz, bir qarashda insonni o'ziga chorlaydi biroq manzilga yetganda esa inson u yerdagi ko'zga ko'ringan barcha go'zallik sarob ekanligini anglaydi. Ikkinchi yo'l uzoq va mashaqqatli, manzil ham ko'zga ko'rinmaydigan darajada sirli, biroq bu yo'lni tanlagan inson oxir-oqibat yo'l yo'lakay yengib o'tgan sinovlari evaziga komil insonga aylanadi. Qay yo'lni tanlash insonning o'ziga, ya'ni iroda erkinligiga bog'liq. Birinchi yo'ldan yurgan inson bu dunyo lazzatlariga aldanib abadiy baxtdan mosuvo bo'ladi. Mashaqqatli yo'ldan yurgan inson esa abadiy dunyo baxtiga erishadi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, Forobiy Sharq va G'arb faylasuflari orasida diniy ihtiloflar sababli azaliy bahs-munozaralarga sabab bo'lib kelayotgan ko'plab masalalar, jumladan, olam yaralishi, insonning iroda erkinligi va uning nega oliy mavjudot ekanligi to'g'risidagi jumboqlarga universal yechim topishga harakat qilgan. Forobiy o'z g'oyalarida yunon va islom falsafasining umumiy mutanosibligiga erisha

oldi. U yaratgan ilmiy me'ros, yunon faylasuflari asarlariga yozgan sharhlari o'zidan keyingi Sharq faylasuflarining fikrlar rivojiga zamin yaratdi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Abu Nasr Forobiy. Aflotun qonunlari mohiyati haqida. – T.: Xalq merosi, 1993. – 180 b.
2. Abu Nasr Forobiy. Arastu falsafasi. // Forobiy. Fozil odamlar shahri. – T. Xalq merosi. 1993. – 330 b.
3. Xayrullayev M. Uyg'onish davri va Sharq mutafakkiri. – T.: Fan, 1993. – 274 b.
4. Казибердов А.Л., Муталибов С. А. Абу Наср ал-Фараби. Исследования и переводы. – Т.: Фан, 1986. – 200 с.
5. Adamson, Peter. In the age of Al Farabi, Arabic Philosophy in the Fourth/Tenth Century//Journal of Islamic Studies 22 (no. 2) – L.: Press, 2011. – 247 p.
6. Mahdi, Muhsin. Al Farabi and the Foundation of Islamic Political Philosophy. Chicago: The University of Chicago Press, 2011. – 298 p.
7. XXI World Congress of Philosophy. Abstracts. – Istanbul: Turkey, 2003. – 444 p.